

COGNITIVE SPACE OF THE TRANSLATOR WHEN WORKING WITH HUMOROUS TEXTS

Khabibulla Abdullayevich BAYMANOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Head of the Department of Foreign Languages
Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Mokhinur Madjid kizi SOATOVA

PhD student
Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Tashkent, Uzbekistan

HAJVIY MATNLAR BILAN ISHLASHDA TARJIMONNING KOGNITIV MAYDONI

Xabibulla Abdullayevich BAYMANOV

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Ph), dotsent
Xorijiy tillar kafedrasini mudiri
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Mohinur Majid qizi SOATOVA

Doktorant (PhD)
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent, O'zbekiston

КОГНИТИВНОЕ ПОЛЕ ПЕРЕВОДЧИКА ПРИ РАБОТЕ С ЮМОРИСТИЧЕСКИМ ТЕКСТОМ

Хабибулла Абдуллаевич БАЙМАНОВ

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Заведующий кафедрой иностранных языков
Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан
habibullo81@list.ru ORCID ID: 000900019293928

Мохинур Маджид кизи СОАТОВА

Докторант (PhD)
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Ташкент, Узбекистан
mohinur97soatova@gmail.com ORCID ID: 0009-0000-5904-791X

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Baymanov X.A., Soatova M.M. Hajviy matnlar bilan ishlashda tarjimonning kognitiv maydoni.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 239-251.

<https://doi.org/10.36078/1746688393>

Received: March 15, 2025

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Abstract. This article examines some problems encountered in translation activities when working with literary texts, particularly when working with literary works containing humorous texts. The issue of the practical application of knowledge obtained with the help of modern cognitive science is considered. Based on the data of cognitive linguistics, observations of the translator's thinking (consciousness) are presented, and at the same time, information important in the coding process in translation is presented in the form of a diagram. Also, the interpreter's cognitive space of available information in the decision-making process was determined. We have developed our research on the expression of the feeling of humor in the translation of humorous texts, relying on the semantic theory of humor by V. Raskin and the theory

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



developed later as the general theory of oral humor by S. Attardo. In the process of expressing the feeling of humor, the translator complements the elements that form the scripts. This method of schematic description allows one to understand the translator's thought, determine the structure of the script, and analyze the degree to which the sense of humor is manifested in the translated text.

Keywords. sense of humor; cognitive linguistics; cognitive field; literary translation.

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnlar, xususan, tarkibida hajviy matnlar bo'lgan badiiy asarlar bilan ishlashda tarjimonlik faoliyatida uchraydigan ba'zi muammolar ko'rib chiqildi. Zamonaviy kognitiv fanga doir bilimlarning amaliy qo'llanilish masalasi muhokama qilinadi. Kognitiv lingvistika ma'lumotlariga tayangan holda, tarjimon tafakkuri(ongi) bo'yicha olib borilgan kuzatishlar keltirildi, shu bilan birgalikda, tarjimada kodlashtirish jarayonida muhim bo'lgan ma'lumotlar sxema ko'rinishida taqdim etildi. Shuningdek, tarjimon qaror qabul qilish jarayonida mavjud axborotning kognitiv maydoni belgilandi. Hajviy matnlarni tarjima qilishda kulgi hissini ifodalash bo'yicha V. Raskinning hazilning semantik nazariyasiga hamda keyinchalik S.Attardoning umumiy og'zaki hazil nazariyasi sifatida rivojlantirilgan ilmiy g'oyalariga tayangan holda tadqiqot konsepsiyasi yaratildi. Kulgi hissini ifodalash jarayonida tarjimon skriptlarni shakllantiruvchi elementlarni to'ldiradi, natijada ushbu skriptlar tarjima tili auditoriyasi ongida shakllantiriladi. Ushbu sxemali tasvirlash usuli tarjimon fikrini tushunishga, skript tuzilishini aniqlashga hamda tarjima matnidagi kulgi hissini qay darajada namoyon bo'lgani yuzasidan tahlil olib borishga imkon beradi. **Kalit so'zlar:** kulgi hissi; kognitiv lingvistika; kognitiv maydon; badiiy tarjima.

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые проблемы, с которыми сталкиваются переводчики при работе с художественными текстами, содержащими элементы юмора. Анализируется вопрос практического применения знаний, полученных с помощью современной когнитивной науки. Опираясь на данные когнитивной лингвистики, представлены наблюдения, касающиеся мышления (сознания) переводчика, а также в схематической форме представлены важные аспекты для процесса кодирования информации при переводе. Кроме того, определяется когнитивное поле переводчика в процессе принятия решений. При переводе юмористических текстов мы опирались на семантическую теорию юмора В. Раскина, а также на разработанную впоследствии С. Аттардо общую теорию вербального юмора. В процессе передачи комического эффекта переводчик дополняет элементы, формирующие сценарии (скрипты), в результате чего данные сценарии формируются в сознании аудитории языка перевода. Этот метод схематического представления помогает понять мышление переводчика, определить структуру скрипта, а также провести анализ того, насколько ярко проявляется комический эффект в переводном тексте.

Ключевые слова. комический эффект; когнитивная лингвистика; когнитивное поле; художественный перевод.

Kirish

Kognitiv tilshunoslik bo'yicha mamlakatimizda va xorijda olib borilayotgan tadqiqotlar so'nggi yillarda tobora ortib bormoqda. Avvallari til atrofimizdagi dunyoni tushunish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u insonning ichki dunyosiga, uning intellektual qobiliyatlariga va tafakkur jarayonining yashirin jihatlarini anglashga yo'l ochuvchi kalit sifatida qaralmoqda. Ma'lumki, kognitiv so'zi inglizcha "cognize — bilmoq, anglamoq, tushunmoq" so'zidan olingan bo'lib, bu soha nafaqat falsafa fanidagi bilish nazariyasi bilan, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Sh. Safarovning ta'kidlashicha, kognitiv lingvistikaning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir [Safarov 2020: 79].

Tarjima jarayoni ham ushbu qonuniyatlarga bo'ysunadi. Tarjimonning muallif fikrini yetkazishdagi faoliyati tafakkurni anglash jarayonlari, ijodiy jarayon bosqichlari, inson bilimlarini saqlash tizimi va ushbu bilimlarni boshqa insonlar tushunadigan lingvistik shakllarga aylantirish kabi mezonlar asosida tahlil qilinadi. Masalan, N.K.Ryabtsevaning fikriga ko'ra, tarjimonning kasbiy mahorati faqat tillarni mukammal bilish bilan cheklanmaydi. U, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni anglab yetishda va ularga to'g'ri yechim topish qobiliyatini o'z ichiga olgan professional tarjima tafakkuri(ong)ga ham ega bo'lishi lozim [Shakhobiddinova 2001: 50]. Badiiy asarlar tarkibida hazil (yumor) mavjud bo'lganda, tarjimon murakkab vaziyatga tushib qoladi. Bunday vaziyatlarda imkon qadar ushbu hazilni tarjima tilida berish lozim, chunki bu matnning funksional ekvivalentligini ta'minlash shartlaridan biri hisoblanadi. Kulgi hissiga ega matnni tushunish va uni qayta yaratish jarayoni subyektiv jarayon bo'lganligi uchun tarjima jarayoni yanada murakkablashadi. Nazariyada bunday holatlarga "tarjima muammosi" sifatida qaraladi.

Tarjima ishi murakkab jarayon bo'lib, avvalo, mavjud til shakllariga (grammatik qoidalar, so'z birikmalari, iboralar) asoslanadi. Tarjima vaqtida u asl matndagi ma'no-mazmunga yaqin keladigan maqbul ekvivalentni tarjima tilidan izlaydi. Biroq bunday jarayon asosan murakkab bo'lib, tarjimon ishini yengillashtirish uchun qandaydir yordamchi vositalar yoki yo'riqnoma (masalan, formal qoidalar tarjima strategiyalari) kerak bo'ladi. Bunday vositalar tarjimonga asl matn mazmunini to'g'ri va samarali tarzda ifodalashga ko'maklashadi.

Kulgi hissiga ega matnni topishda Viktor Raskin tomonidan taklif etilgan va keyinchalik Salvador Attardo tomonidan rivojlantirilgan nazariyaga murojaat qilamiz. Ushbu nazariyaning tarjima amaliyotidagi muhim o'rni haqida mashhur hazil tadqiqotchisi Deliya Chiaro ham ta'kidlab, "Umumiy og'zaki hazil nazariyasi va skriptlar to'qnashuvi" tushunchasini tarjimonlar uchun asosiy mexanizmlardan biri deb hisoblaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aynan V.Raskinning ishi chop etilgandan keyin hazilga kognitiv nuqtayi nazardan faol o'rganila

boshlangan [Chiaro 2017: 414–429]. Ushbu nazariyaga ko'ra, muallif skript atamasini kiritgan bo'lib, u so'zni o'rab turgan semantik ma'lumotlarning katta bir bo'lagi bo'lib, dunyoning muayyan qismi haqidagi til egasining bilimini aks ettiruvchi kognitiv tuzilma hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — tarjimonning fikrlash faoliyati yo'nalishini ko'rsatish, xususan, kulgi hissiga ega bo'lgan matnni tarjima qilayotganda qanday yondashuvlar qo'llanilishini tahlil qilishdir. Bu jarayonda tanlov maxsus kognitiv axborot maydoni doirasida amalga oshiriladi.

Asosiy qism

Tarjimonning kognitiv maydonini aniqlashda V. Raskin tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga tayanamiz. Unga ko'ra hazilning asosiy mohiyati bitta matnda yoki jumlada ikki xil semantik skriptning mavjudligiga asoslanadi, ya'ni bitta matnda ikkita qarama-qarshi ma'noning bir vaqtda kelishi bo'lib, o'quvchi tomonidan bu ma'nolar anglashilganda yuz beradi. Masalan:

Doktor bemorga dedi: — Xavotir olmang, bu kasallik irsiy.

Bemor dedi: — Demak, men uni otamdan yuqtirgan ekanman-da!

Bu yerda ikkita skript mavjud: tibbiy skript (irsiy kasallik genetik tarzda avloddan-avlodga o'tadi) va yuqumli kasallik skripti (kasallik odamdan odamga yuqish orqali o'tadi).

Demak, skript — odamning ongi va tajribasida shakllangan, so'z yoki iboralarning ma'nosini tushunishga yordam beradigan bilimlar to'plami. Muallifning fikriga ko'ra, hazil paydo bo'lishi uchun qarama-qarshi fikrlar yoki vaziyatlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi kerak. U hajviy matnlarda kulgi hissini paydo bo'lishi uchun bir nechta shartlar bajarilishi lozim. Birinchidan, bitta matnda kamida ikkita har xil skriptlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi kerak, ikkinchidan, ushbu ikkita script muayyan bir vaqtda to'qnashishi, ya'ni antonimik juftlik hosil qilishi kerak. Muallif asosiy qarama-qarshiliklarni quyidagicha antonimik juftlik bilan ko'rsatib o'tgan:

- actual / nonactual;
- normal (kutilgan holat) / abnormal (kutilmagan holat);
- possible (ehtimoliy vaziyat) / impossible (to'liq, qisman yoki kamroq ehtimoliy vaziyat).

Muallifning fikriga ko'ra, yangi nazariya quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: to'liqlik — barcha omillarni, jumladan, til, kontekst, madaniy muhit va kognitiv jarayonlarni hisobga olish; samaradorlik — hazilni tushunishda amaliy natija bera olishi; mantiqiy qoidalarga muvofiqlik; muammolarga yechim topa olishi va b. Muallif, matnda bir-biri bilan to'qnashuvchi skriptlarning zarurligini tasdiqlab, ushbu nazariya hali yakuniy shaklni olmaganini ta'kidlaydi va uning fikriga ko'ra, hazilni aniq va mukammal tushunib yetish uchun esa avval matnni to'liq tushunib chiqish lozimligini aytib o'tadi.


Shu o'rinda muallifning skriptni to'liqroq tushunish uchun keltirgan misolini ko'rib chiqamiz. Duglas Adamsning "Dirk Gently's Holistic Detective" asaridan olingan parchaga e'tibor qaratamiz. Matndagi hazilni to'liqroq tushunish uchun kengroq kontekstni keltirib o'tamiz. Maykl Syuzanning omadsiz ishqibozi bo'lib, u Syuzan va Richardning navbatdagi

tortishuvi paytida tasodifan ularni yoniga kelib qoldi. U janjal paytida ularga aralashmadi, bu esa Syuzanning asabiga tegdi.

— *Oh, Michael, — said Susan brusquely, don't just stand there like a sinking pudding.*

— *Hoy, Maykl, — dedi Syuzan dag'al ohangda. Cho'kib qolgan puddingga o'xshab turavermasangchi (so'zma-so'z tarjimada).*

Ushbu jumlagi kiruvchi har bir so'z unga bog'liq bo'lgan muayyan bilimlar to'plamini faollashtiradi. Masalan, Maykl nomli qahramon sifatida nafaqat lingvistik jihatdan (inson, erkak, ism) tushuniladi, balki butun asar konteksti asosida qo'shimcha ma'nolar ham yuklaydi (ikkinchi darajali qahramon, o'ziga ishonchsiz, dangasa shaxs va b.). Bundan tashqari, har bir o'quvchi ushbu skriptlarni o'zining shaxsiy tajribasi asosida turlicha talqin qilishi mumkin. Bu, albatta, har bir kishining asarga subyektiv yondashuvi bilan bog'liq. Shunday qilib, har bir semantik birlik nihoyatda tarmoqlangan tizimga ega bo'lib, u hech qachon tugamaydi, chunki u ham boshqa birliklarga bog'lanishi mumkin. V Raskinning fikriga ko'ra, bitta tilga oid barcha skriptlar yagona grafikni tashkil etadi: "aslida, tilning barcha skriptlari bitta uzluksiz grafikni hosil qiladi va so'zning leksik yozuvi ushbu grafikda muayyan so'z atrofida joylashgan bo'lib, u markaziy tugun sifatida joylashadi" [Кубрякова 1997: 245]. Matn, ayniqsa, kulgi hissiga ega bo'lgan parchalar bilan ishlash jarayonida, madaniyatlararo kommunikatsiya tuzilishini oldindan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tarjima jarayonida tilga oid umumiy va matn ichidagi kontekstual ma'nolar hamda ushbu matn bilan tanish bo'lgan odamlar uchun tushunarli bo'lgan ma'nolar hisobga olinadi. Biroq shaxsiy assotsiatsiyalar chetda qolib, tarjimon faoliyati doirasiga kirmaydi. Har qanday holatda ham, kognitiv tuzilmalarni tavsiflash uchun ishlatiladigan metatil nisbatan shartli bo'lib, aniq zaruriyatga asoslanadi [Мусийчук 2012: 32]. Bizning ishimizda esa bu zarurat — berilgan matnda mavjud bo'lgan kulgi hissini ma'lum darajada to'g'ri yetkazishdan iboratdir.




1-chizma. Kulgi hissini ifodalashning kognitiv mexanizmi

1-chizmada ko‘rinib turibdiki, asosiy to‘qnashuv “jonli va jonsiz” kategoriyalarining semantik nomuvofiqligi tufayli yuzaga keladi. Tarjimon ong ostida bo‘lsa ham, shunga o‘xshash sxemani shakllantirishi mumkin. Bu unga hazil yaratilishining asosiy tamoillarini tushunish va kognitiv hamda lingvistik elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan jumlaning o‘zbek tiliga ekvivalent tarjima usuli orqali qilingan tarjimani ko‘rib chiqamiz:

— *Hoy Maykl, dedi Syuzan bo‘g‘iq ovozd, Nimaga og‘zingga talqon solib olgandek jim turibsan?*

Muallifning idiostilini aks ettiruvchi “ozuqa” konkretlashtirish maydoni saqlanib qolgan holda, lingvokultural farqlar tufayli uning mazmuni biroz o‘zgaradi. Tarjimada kulgi hissini ifodalash shartlaridan biri muayyan elementning madaniy kontekstda o‘quvchiga tanish bo‘lishidir. Masalan, o‘zbek mentaliteti vakillari uchun “cho‘kayotgan pudding” tushunchasi unchalik tanish bo‘lmas-da, “og‘ziga talqon solmoq” tushunchasi “ovqat” kategoriyasiga yaqinligi, tushunarli ekvivalenti bo‘lishi mumkin [Yule 1996: 152] O‘zbek tilida “og‘ziga talqon solib olgan” degan ibora mavjud bo‘lib, bu “gapirmas, indamas” ma‘nosini beruvchi ingliz tilidagi “cho‘kib qolgan pudding” iborasiga yaqin ekvivalenti bo‘lishi mumkin.



2- chizma. Potensial kulgi hissining tarjimada saqlanishi

2- chizma orqali “jonli va jonsiz” kategoriyasi to‘qnashuvining saqlanib qolganini, ko‘rish mumkin. Bu esa tarjima matnida potensial kulgi hissini tarjimada saqlanib qolish imkonini beradi. Garchi skriptlar biroz boshqacha shakllangan bo‘lsa ham.

Hajviy matnlar adabiyotda alohida o‘rin egallagan janr bo‘lib, ularning asosiy maqsadi o‘quvchini kuldirish, uning fikr-mulohazalarini uyg‘otish va jamiyatdagi salbiy holatlarni tanqidiy ko‘rsatishdan iborat. Bunday kulgi do‘stona bo‘lishi yoki o‘tkir kesatq shaklida nomoyon bo‘lishi mumkin. Kulgi turli qirralarga ega bo‘lib, u hazil-mutoyiba hissiyatini uyg‘otishdan tortib, ayovsiz tanqid, achchiq istehzo kayfiyatini

qo'zg'atishga qadar amal qiladi. X. Karimov "Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari" o'quv qo'llanmasida kulgi haqida shunday deydi: "kulgi ko'rinishlarining ko'pchiligi ma'nolarning xilma-xilligiga bog'liq. Bu yumor va satirada o'z ifodasini topadi. Yumor kulgisi o'ta ta'sirchan bo'lishi mumkin".

Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, tarjimalarda ma'no maydonining to'ldirilishi turlicha amalga oshirilgan. Bunda asl matndagi kognitiv maydon tarkibiy qismlarining tarjima tilidagi ekvivalentlar bilan oddiy almashtirilishi emas, balki ikki tilning semantik tizimidagi farqlar inobatga olingan. Chunki har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda bo'laklarga ajratadi, bu esa ularning ichki tuzilishi, iyerarxiyasi va mazmunining o'ziga xos bo'lishiga olib keladi. Kubryakovaning ta'kidlashicha, "har bir tabiiy til o'ziga xos kategorizatsiya va konseptualizatsiya jarayonlari natijasida shakllangan" shuning uchun "ushbu jarayonlar natijasida hosil bo'lgan kategoriyalar, ularning tuzilishi, iyerarxiyasi va turlari bir-biridan farq qiladi" [Кубрякова 1997: 245]. Hazilning mavjudligi holatida asosiy invariant sifatida antonimik juftlik qaralishi mumkin. Bunda nafaqat Raskin tomonidan taklif qilingan uchlik tuzilmaning asosiy elementi, balki undan keyingi qarama-qarshi juftlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

D. Long va A. Gresserlar "hajv madaniy ko'rinishdagi individual kognitiv hodisa bo'lib, madaniy jihatlariga bog'liq bo'ladi, chunki ijtimoiy omillar hajvning sodir bo'lishida bosh mexanizm hisoblanadi" deb aytib o'tadilar. Hajv hayotning va badiiy ta'sirchanlikning nomuvofiqliklarini turli ko'rinishlari sifatida izohlanadi [Каримшоев 1973: 34].

Hajv — hissiyot emas, ammo hayot falsafasi. U insoniyatning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, biror tilning ajralmas komponentidir" deya ta'rif beradi. Ushbu olimlarning hajvga bergan ta'riflariga e'tibor qaratgan holda, hajviy matnlarni tarjima qilishda asliyat tilining tasviriy ifoda vositalari va til sohiblarining milliy madaniyatiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz. Hajviy matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda tarjimon ko'plab murakkab to'siqlarga duch keladi. Ularga tilning lingvistik xususiyatlari, madaniyatlararo tafovutlar, matnning kognitiv-pragmatik tahlili va tarjimada kulgi hissini saqlab qolish kabi muammolarni sanab o'tish mumkin [Davies 2011: 328]. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan xorijda va o'zimizda qilingan ishlar talaygina bo'lishiga qaramasdan, tarjimada emotsiyani (kulgi hissini) saqlab qolish yuzasidan qilingan ishlar yetarlicha ko'p emas va hali o'z tasdiqini topmadi.

Tarjimada kulgi hissi deganda — o'quvchi tomonidan hajviy matn elementlari aniqlanib, shu orqali asarga nisbatan hosil bo'ladigan reaksiyasidir. Kulgi hissi o'quvchida matnning ma'lum strukturasi to'g'ri anglab yetganida yuzaga keladi, bu esa ushbu atamaning kognitiv tilshunoslik sohasi uchun dolzarb atama sifatida qarash imkonini beradi. Bundan tashqari, uning qo'llanilish sohasi bevosita pragmatik jihatga (kimga, qayerda, qachon, nima uchun va kim uchun yaratilishiga) ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham kulgi hissi tushunchasi asliyat va tarjima matnini qiyosiy tahlil qilishda hamda kognitiv-pragmatik model yaratishda asos vazifasini bajaradi [Halliday 1972: 13–24].

ISHS (International Society for Humor Studies)ning 2018-yilgi yig'ilishida Jessica Milner Devis maruza qilib, hajviy matnlarni o'rganish

so'nggi yillarda ko'proq interditsiplinar (ko'p tarmoqli yo'nalish) xususiyatga ega bo'layotganini takidlagan. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy yumor tadqiqotlari masalasi faqatgina lingvistik xarakterdagi tadqiqotlar bilan cheklanmayapti, balki ularni **falsafiy tomondan**: hajvni hayotiy pozitsiya sifatida ko'radi, ya'ni bu insonning hayotga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi yoki qarashlarining ifodasi sifatida; **mantiqiy tomondan**: hajvni aniq bir mantiqqa yoki qoidaga asoslanmagan alogik shakl sifatida tushunadi; **psixologik tomondan**: hajvni odamning ichki his-tuyg'ularini, masalan, stressni yoki hayotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun ishlatiladigan kompensatsion mexanizm sifatida ko'radi va u odamning psixologik holatini yengillashtirishga yordam beradi; **ritorika tomondan**: hajvni ma'lum bir stilistik vositalar va usullar orqali so'zlarni ishlatish orqali kulgi hosil qilish sifatida; **kognitiv tomondan**: hajvni insonning fikrlash jarayonining natijasi sifatida ko'radi. Bu yerda asosiy e'tibor, hajvni yaratish yoki tushunish uchun qanday fikrlash va idrok etish jarayonlariga qaratilgan; **sotsiologik tomondan**: hajv jamiyatda munosabatlarni uyg'unlashtirish vositasi sifatida ishlatadi. Hajv odamlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy normativlarni o'rnatish va jamiyatni birlashtirishga yordam beradi; **madaniyatshunoslik tomondan**: hajvni madaniy jihatdan o'ziga xos hodisa sifatida ko'radi, ya'ni u ma'lum bir millat yoki madaniyatga xos tarzda yuzaga keladi va uning dunyoqarashini aks ettiradi; **pragmatik tomondan**: hajvni kommunikatsiya jarayonida pragmatik strategiya sifatida tushunadi [G'afurov 2012: 134]. Ya'ni insonlar hajvni maqsadli ravishda, muloqotda maqsadga erishish uchun foydalanadilar. Bu muloqotda qiziqish yoki munosabatlarni yengillashtirish maqsadida ishlatadi.

Bundan tashqari hazil tarjimashunoslikda ham alohida ahamiyatga ega. Hajviya, hajviy matnlarni tarjima qilishga bag'ishlangan ishlar uncha ko'p bo'lmasa-da, hajviy matnlarni tarjima qilish va uning tarjimasidagi muammolariga bag'ishlangan bir qator ishlarda kulgi hissini berish masalasi bir qator yoritib o'tilgan. Baloniya universitetining professori Delia Chiaroning fikriga ko'ra, hajviy matnlarni tarjima qilish tarjimon uchun yechimi murakkab bo'lgan muammolarni keltirib chiqaradi ("...creates one of the arduous challenges"). Biroq aynan mana shu vazifaning murakkabligi tadqiqotchilarning ushbu tarjima aspektiga bo'lgan qiziqishini oshiradi ("...this particular aspect of translation has attracted significant attention"). Uning aytishicha, hajviy matnlar tarjimasidagi eng katta muammo lingvistik va sof madaniy xususiyatlarning kombinatsiyasidir. Muallif lingvistik muammolarni hal qilish uchun tarjima tilida o'xshash vositani, masalan, ma'nosi yaqin bo'lgan polisemalarni topishni taklif qiladi [Brone 2017: 250–266]. Lekin aslida "boshqa tilda o'xshash ma'nolarni yetkazish uchun o'xshash lingvistik vositalardan foydalanish ehtimoli kam" deya aytib ham o'tgan. Chiaroning fikriga ko'ra, hazil tarjimasini muayyan shartlarga asoslanib tarjima qilib bo'lmaydigan "...conventionally untranslatable" qoidalarga asoslanadi, uning tarjimasini bilan bog'liq asosiy muammo sifatida ekvivalentlik va tarjima qilib bo'ladigan aniq qoidalar mavjud emasligini ta'kidlaydi. U Nidaning "funksional ekvivalentlik" nazariyasiga asoslanib, hazilni tarjima qilishda matnga jiddiy o'zgarishlar kiritishni o'rinli deb biladi. Uning fikricha "hazilni tarjima qilish mumkin, ammo uni aslida

hazil sifatida saqlab qolish uchun sezilarli darajada o'zgartirilishi kerak" deb aytib o'tadi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, hazil tarjimasida odatdagi tarjima usullariga bo'ysunmaydigan tarjima turi bo'lib, asliyatdagi ma'noni berish uchun tarjimondan katta mehnat va ijodkorlik qobiliyatini talab etadi.

Agar kerakli ta'sirni aniq bir joyda yetkazib bo'lmasa, Chiaro kompensatsiya usulidan foydalanishni tavsiya qiladi. U, shuningdek, asliyat va tarjima matn o'rtasida bir-biri bilan o'xshash nuqtalar mavjud bo'lishi muhimligini takidlaydi. Bunday o'xshashlik qancha ko'p bo'lsa, tarjima matni asliyatga shunchalik mos bo'ladi va o'quvchi qabul qiladigan ta'sir shunchalik yaqinlashadi [Attardo 2011: 238].

Uning fikriga ko'ra hajviy matnlarni tarjima qilishda quyidagi usullarni ajratib ko'rsatadi:

- matnning formal usulini saqlab qolish: bu usul matnning shakli va tuzilishini iloji boricha asliyatdagidek tarjima qilishni nazarda tutadi. Biroq bu usulda ko'pincha tarjima ta'siri yo'qoladi, chunki hazil ko'pincha til yoki madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi;

- original matndagi birlikni tarjima tilida kulgi ta'sirini saqlab qoluvchi, lekin mos bo'lmagan birlikka almashtirish: bu strategiyada tarjimon kulgi hissini ham qayta yaratishga harakat qiladi, hatto original matndagi birlikka to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan so'z yoki ibora mavjud bo'lmasa ham;

- original birlikni tarjima tilidagi idiomatik ifoda bilan almashtirish: tarjimon hajviy matnlardagi kulgi hissini saqlab qolish uchun o'z madaniyatiga mos keladigan iboralar va ifodalardan foydalanadi;

- original matndagi hazilni e'tiborsiz qoldirish: bu usulda hazilni tarjima qilishdan butunlay voz kechiladi, chunki uni boshqa madaniyatga moslashtirish qiyin yoki mumkin emas, deb hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishish yetarlicha murakkab bo'lib, ko'plab qo'shimcha savollarni ko'ndalang qo'yadi. Chunki badiiy asarlardagi hazil va kulgi hissiga ega bo'lgan matnlarni tarjima qilishga yondashuv bo'yicha hali aniq va mukammal yechim taklif etilmagan. Biroq zamonaviy fanlararo yondashuvning ahamiyati o'sib borayotganini, shuningdek, tarjimashunoslik va kognitiv lingvistikaning o'zaro integratsiyasini hisobga olgan holda, ushbu jarayonni tushunishda yangi imkoniyatlar yuzaga kelayotganini aytish mumkin. Xususan, kognitiv lingvistika til tuzilmalari va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga e'tibor qaratib, tarjima faoliyatini chuqurroq anglash uchun yangi yo'nalishlarni ochadi.

Hajviy matnlarni zamonaviy yondashuvlarga asoslanib o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki faqatgina oldingi yaratilgan nazariyalarga tayanib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali yangi nazariyalar ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro madaniy muloqotda hajviy matnning ta'sirini uzatishga ta'sir etuvchi omillar to'liq va aniq tavsiflab berish masalasi hali to'liq hal etilmaganligini qayd etish lozim. Shu o'rinda ilgari mavjud bo'lgan nazariyalarni inkor etib bo'lmaydi, chunki ularning har biri ilmiy haqiqatlarning ma'lum bir qismini yoritadi va shu tariqa yuzaga keladigan ayrim muammolarni qisman hal qilishga yordam beradi. Shunga muvofiq ushbu paragrafda

taklif qilinayotgan modelga bevosita aloqador bo'lgan, o'z mazmunida lingvistik va kognitiv jihatlarini qamrab olgan olimlarning ishlari sanab o'tiladi. Shu bilan birga, kognitiv va lingvistik nazariyalarni bir-biriga qarama-qarshi tushuncha deb qarash, ularni bir-biridan ayri holda o'rganish bizning fikrimizcha noto'g'ri, chunki ular interditsiplinar (ko'p tarmoqli) xarakterga ega [Мусийчук 2012: 32].

Hazilni kognitiv tahlili bo'yicha ish olib borgan olimlardan yana biri rus filologi A. D. Koshelev hazilning tabiati haqida fikr yuritir ekan, Raskin va Attardolarning nazariyalari kulgi ta'sirini to'liq tushunish uchun yetarli emasligini takidlaydi. Ushbu nazariyaning imkoniyatlari cheklanganligining asosiy sababi shundaki, bu avvaldan ma'lum bo'lgan umumiyroq hodisalarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan kognitiv sxemalardan iborat, deb aytib o'tadi. Muallifning fikricha, hazilning asosiy tarkibiy qismi ikki elementdan tashkil topgan: "obraz va uning xarakteristikasi". Xarakteristikaning asosiy belgisi "tanib olish va konseptualizatsiya, ya'ni tushunchaga ega bo'lish"dan iborat. Boshqacha aytganda, kulgining samarali bo'lishi uchun obraz va uni tanib olish va tushunchaga ega bo'lish kabi mezonlar talab etiladi [Абаева 2017: 5–11]. Muallifning fikricha, hazilning belgisi — insonning xohishlariga mos bo'lmagan yoki nohaqlikni aks ettirgan xususiyatdir. Kulgi ta'siri esa shunday qarama-qarshilikni ko'rgan odamning uning haqiqatdan yiroqligini tushunganida yuzaga keladi.

Bizga ma'lumki, A. D. Koshelev o'zining "Hazilning tuzilishi haqida (anekdot, kalambur, sharj, parodiya, hajv va hajviy hikoyalar)" nomli asarida Albert Enshteynning ikki xil yuz ifodasini tahlil qiladi. Birinchi olimning yuz ifodasidan biz aqlli va ilhomlantiruvchi kabi obraz xarakteristikasiga ta'rif beramiz. Ikkinchi yuz ifodasida muallif A. Enshteynning tilini chiqarib turgan suratini tahlil qilib, bu tasvirga quyidagi fikrni bildiradi: "aqlli, ruhlantiruvchi — hazilkash va masxaraboz". Shunday qilib, obrazga quyidagi kategoriyalarga asoslanib, xarakteristika berish mumkin: a) ekzogen — tashqi omillarga asoslangan xarakteristika; b) ushbu tasvirning dastlabki endogen (ichki) xarakteristikasiga qarama-qarshi; d) o'rtacha salbiy (atrofdagilar uchun o'rtacha darajada salbiy fikr qoldirishi). Enshteyn o'zining kashfiyotlari bilan dunyoqarashini o'zgartirgan. Bu rasm esa uning oddiy qoidalar doirasida yashamaganini ko'rsatadi va u ijodiy fikrlash va kulgi hissini qo'zg'atuvchi timsol sifatida qabul qilinadi.

Har qanday holatda ham, tadqiqotchilar hazil mavjudligining asosi sifatida ma'lum bir qarama-qarshilik va to'qnashuvni qabul qilishdan bosh tortmaydilar. "Haqiqiy hazilning asosini mavzu yoki hodisaning o'zida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar tashkil qiladi" deb aytib o'tadi.

Hozirgi kunda hajviy matnlarning to'liq tahlili bo'yicha aniq bir qo'llanma mavjud bo'lmasa-da, yuqorida keltirib o'tilgan mezonlarni to'g'ri aniqlay olish tarjimada kulgi hissiga ega matnlarni tarjima qilish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu, shuningdek, doim ham to'g'ri deb hisoblanmaydigan tarjimada tushirib qoldirish usulidan qochishga imkon beradi. Tarjimada tushirib qoldirish ikki sababga ko'ra yuz berishi mumkin: tarjimon o'sha hazilni to'g'ri tushinib yetmaganida yoki ataylab tushirib qoldirganida bo'lishi. Bunday qaror qabul qilishda tarjimon ehtiyotkor bo'lishi lozim.

Hajviy matnlarni skriptlarga tayangan holda tarjima qilish matnni kognitiv xususiyatiga chuqurroq kirishga olib boradi, bu esa o'z o'rnida to'g'ri yondashuv sanaladi. Chunki hazil nazariyalarining samarali yo'nalishlaridan biri bu, albatta, kognitiv yo'nalishdir [Иоффе 1973: 38].

Inglizabon mutaxassislarning fikriga ko'ra, kognitiv tilshunoslikning kognitiv psixologiya, nevropsixologiya hamda tilshunoslikdagi bilimlar va tadqiqotlarni o'zida jamlagan bir qismi hisoblanadi. Shu o'rinda aytish joizki, kognitiv so'zining o'zi bilish tushunchasini anglatadi. Ko'rinib turganidek, kognitiv lingvistika inson ongining til va tafakkur bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Olimlar inson ongining lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganar ekan, hazilni asosiy elementlari bo'lgan atrofda voqelikni aks ettirish va idrok etishning stereotipik shakllanishini ham tadqiq etadilar. Shu orqali ular hazilning yangi kategoriyalarini ochib berishga harakat qiladilar.

Xulosa

To'qnashuvchi skriptlarning sxematik tasviri tarjimada kulgi hissini ifodalash uchun yordam berishi mumkin. Bunday sxemalarni tarjima jarayonida shakllantirishda, matn tarkibidagi alohida birliklarning ma'nosidan ko'ra, ziddiyatni ifodalovchi antonimik juftliklarga tayanish lozim. Shunga qaramay, bu kognitiv maydon hamda uning barcha tarkibiy qismlari til vositalari orqali ifodalanadi. Til inson tomonidan tashqi olamdan qabul qilingan axborotni moddiy belgilarga aylantirib, uni anglash va qayta ishlash jarayonida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. U axborotni shakllantirish, turli qismlarini nomlash, tahlil qilish va tavsiflash imkoniyatini ta'minlaydi.

Tarjimada kulgi hissini ifodalash uchun zarur bo'lgan axborot kognitiv maydonlarda joylashtiriladi, ammo bu taqsimot axborotning aniq saqlanadigan joyi oldindan isbotlangani uchun emas, balki shunday yondashuv axborotni yanada tartibli tuzish va tarjima jarayonida samarali foydalanish imkonini berishi uchun amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Attardo S. Humorous texts: A Semantic and Pragmatic Analysis. — New York; Mouton de Gruyter, 2011. — 238 p.
- Brone G. Cognitive Linguistics and Humor Research // The Routledge Handbook of Language and Humor / Ed. by S. Attardo, 2017. pp. 250–266.
- Chiaro D. Humor and Translation // The Routledge Handbook of Language and Humor / Ed. by S. Attardo, 2017. pp. 414–429.
- Davies C. Jokes and Targets. Indiana University Press, 2011. — 328 p. — URL: https://www.researchgate.net/publication/262088759_Jokes_and_Targets_by_Christie_J_H_Davies
- G'afurov, I. Tarjima nazariyasi. Tafakkur Bo'stoni. — Toshkent, 2012. — 134 b.
- Halliday, M.A.K. Reading in Modern Linguistics. An anthology by Malmberg, 1972. pp. 13–24.

- Raskin, V. Semantic mechanisms of humour. — Holland: D. Reidel Publishing Company, 1985. — 284 p. — URL: <https://archive.org/details/semanticmechanis0000rask>
- Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik nazariyasi. — Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2020. — 79 b.
- Shakhobiddinova Sh. Umumiylik va xususiylik dialektikasi hamda uning o'zbek tili morfologiyasida aks etishi. Doktorlik dissertatsiyasining kengaytirilgan avtoreferati. — Toshkent, 2001. — 50 b.
- Yule G. Pragmatics. — Oxford: Oxford University Press, 1996. — 152 p.
- Абаева, Е. С. Единица перевода при работе с юмористическим эффектом / Е. С. Абаева // Вестник Челябинского государственного университета: филологические науки. — 2017. — № 6, вып. 106. — С. 5–11. — URL: <https://library.csu.ru/rbooks2/view2?code=vch/395/001>.
- Валеева Н. Г. Теория перевода: культурно-когнитивный и коммуникативно-функциональный аспекты [Текст] / Н. Г. Валеева. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва: Российский ун-т дружбы народов, 2018. — 244 с.
- Иоффе В. В. Происхождение и развитие рода в праиндоевропейском языке: Расширенный автореферат кандидатской диссертации, Ростов-на-Дону, 1973. — 38 с.
- Каримшоев Д. Категория рода в памирских языках (сравнительный анализ): Расширенный автореферат кандидатской диссертации, — Москва, 1973, — 34 с.
- Кошелев А. Д. О генезисе мышления и языка: Генезис понятий и пропозиций. Аристотель и Хомский о языке. Влияние культуры на язык. — М.: Языки славянской культуры (ЯСК), 2019. — 264 с.
- Кубрякова Е.С., Демьянков, В.З., Панкрац, Ю.Г., Лузина, Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов, Москва: Филологический ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. — 245 с.
- Мусийчук М. В. Когнитивные механизмы структуры комического: философско-методологические аспекты автореферат дис. ... доктора философских наук: — Новосибирск, 2012. — 32 с.

References

- Abaeva, E. S. (2017). *Edinitsa perevoda pri rabote s yumoristicheskim efektom*, Chelyabinsk: Chelyabinsk State University, No. 6, pp. 5–11.
- Attardo, S. (2011). *Humorous texts: A Semantic and Pragmatic Analysis*. New York; Mouton de Gruyter.
- Brone, G. (2017). Cognitive Linguistics and Humor Research. *The Routledge Handbook of Language and Humor*. Walter de Gruyter GmbH & Co KG, 2015. pp. 250–266.
- Chiaro, D. (2017). Humor and Translation. *The Routledge Handbook of Language and Humor* / Ed. by S. Attardo. pp. 414–429.
- Davies C. (2011). *Jokes and Targets*. Indiana University Press. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/262088759_Jokes_and_Targets_by_Christie_J_H_Davies
- G'afurov, I. (2012). *Tarjima nazariyasi. Tafakkur Bo'stoni*. Tashkent.

- Halliday, M.A.K. (1972). Reading in Modern Linguistics. An anthology by Malmberg. pp. 13–24.
- Ioffe, V. V. (1973). *Proiskhozhdenie i razvitie roda v praindoevropeiskom yazyke* (Origin and development of gender in Proto-Indo-European, Extended abstract of candidate's thesis), Rostov-on-Don.
- Karimshoev, D. (1973). *Kategoriya roda v pamirskikh yazykakh* (sravnitel'nyi analiz) (Category of gender in Pamir languages: a comparative analysis, Extended abstract of candidate's thesis), Moscow.
- Koshelev A. D. (2019). *O genezise myshleniya i yazyka: Genezis ponyatii i propozitsii. Aristotel' i Khomskii o yazyke. Vliyanie kul'tury na yazyk* (On the genesis of thinking and language: Genesis of concepts and propositions. Aristotle and Chomsky on language. The influence of culture on language.). Moscow, Yazyki slavyanskoi kul'tury.
- Kubryakova, E. S., Dem'yankov, V. Z., Pankrats, Yu. G., Luzina, L. G. *Kratkii slovar' kognitivnykh terminov* (A concise dictionary of cognitive terms), (1997). Moscow: Faculty of Philology, Lomonosov Moscow State University.
- Musiichuk, M. V. (2012). *Kognitivnye mekhanizmy struktury komicheskogo: filosofsko-metodologicheskie aspekty* (Cognitive mechanisms of comic structure: philosophical and methodological aspects, Extended abstract of Doctor's thesis), Novosibirsk.
- Raskin, V. (1985). Semantic mechanisms of humour. Holland: D. Reidel Publishing Company. Retrieved from <https://archive.org/details/semanticmechanis0000rask>
- Safarov, Sh. (2020). *Kognitiv tilshunoslik nazariyasi* (Cognitive linguistics theory), Jizzax: Sangzor nashriyoti.
- Safarov, Sh. (2020). *Kognitiv tilshunoslik nazariyasi*. Jizzax: Sangzor nashriyoti.
- Shakhobiddinova, Sh. (2001). Umumiylik va xususiylik dialektikasi hamda uning o'zbek tili morfologiyasida aks etishi. Doktorlik dissertatsiyasining kengaytirilgan avtoreferati. Toshkent.
- Shakhobiddinova, Sh. (2001). *Umumiylik va xususiylik dialektikasi hamda uning o'zbek tili morfologiyasida aks etishi* (Dialectics of commonality and particularity and its reflection in the morphology of Uzbek, Extended abstract of candidate's thesis), Tashkent.
- Valeeva, N. G. (2018). *Teoriya perevoda: kul'turno-kognitivnyi i kommunikativno-funksional'nyi aspekty* (Translation theory: cultural-cognitive and communicative-functional aspects), Moscow: Peoples' Friendship University of Russia.
- Yule, G. (1996). *Pragmatics* (Pragmatics), Oxford: Oxford University Press.
- Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.